

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

Nemis tili xorijiy til sifatida darsliklarining sifatini tekshirish haqida .....	247
<b>S.Z.Yo'ldoshev</b>	
Sport faoliyati yo'nalishi talabalariga valeologiya fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari .....	251
<b>I.O.Umarov</b>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quv-jangovar sifatlarni rivojlantirishning ta'lim texnologiyasi .....	256
<b>Sh.M.Bazarbayeva</b>	
Yettisuv viloyatida o'lat epidemiyasiga qarshi kurash siyosati (1900-1910-yillar).....	264
<b>O.X.Mahamadjonova</b>	
Bolalar folkloriga oid o'n ikki cho'p va lapar o'yinlari tavsifi va ta'rifiga doir .....	268
<b>G.A.Donisheva</b>	
Tarixiy jihatdan til leksikasining o'rganilish darajasi (Oybekning Navoiy romani misolida) .....	273
<b>L.A.Xaitov</b>	
Hakim termiziy merosida inson vujudi (borlig'i) va ruhiy uzviyligi, inson o'zligi (nafsi) muammosi. ....	276
<b>Sh.S.Kodirova</b>	
Teaching English language to geology students .....	280
<b>S.S.Xo'jiyeva</b>	
Maktab kimyo darslarida innovatsion metodlardan foydalanish .....	283
<b>F.I.Sharipova</b>	
Developing reading comprehension at future nurses .....	288
<b>U.B.Usmonova</b>	
Sarlavhalar publitsistik matnning muhim qismi .....	294
<b>K.X.Avazov</b>	
Региональное и международное сотрудничество в целях обеспечения безопасности, стабильности в Центрально-Азиатском регионе .....	297
<b>A.N.Qosimov</b>	
Sport vositasida o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash va g'urur-iftixot tuyg'usini shakllantirishning pedagogik zarurati .....	303
<b>A.T.Nishonov</b>	
OTM talabalarida axborot oqimini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik jihatlari .....	310
<b>M.X.Tillavoldiyeva</b>	
Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy taraqqiyot o'rtasidagi aloqadorlik muammolari .....	314
<b>U.D.Xudoyorov</b>	
Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi miqdor va sifat ko'rsatkichlarining xususiyatlari.....	318
<b>S.U.Allayarova</b>	
O'quvchilar lug'at boyligini oshirishning lingvo-pedagogik xususiyatlari.....	325
<b>Ch.T.Qurbonova</b>	
Tabiiy geografiya va geoekologiyada GAT texnologiyalaridan foydalanish.....	329
<b>Z.A.Kendjaeva</b>	
Ilk, jahon dinlari va falsafiy qarashlarda shukronalikka munosabat.....	333
<b>L.S.Sultonova</b>	
Milliy qadriyatlarining innovatsion taraqqiyot talablari asosida rivojlantirish .....	338
<b>Sh.T.Temirov</b>	
Mir Muhammad Siddiq Hashmat shaxsiy kutubxonasining Buxoro ilmiy-adabiy muhitidagi o'rni.....	341
<b>S.X.Kaxxarov</b>	
Yoshlarda harbiy vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirishda harbiy madaniyat omili .....	346
<b>A.R.Jo'rayev</b>	
Minnatdorchilik bildirish nutqiy janri verbal, noverbal va lingvistik atributlarining o'ziga xosligi .....	351
<b>M.C.Muxamedova</b>	
Роль Музеев Узбекистана в жизни общества (начало XX века).....	356
<b>G.J.Tulenova</b>	
On the issue of implementation of projects on the development and practical	



UO'K: 355.009:316.614

**YOSHLARDA HARBIY VATANPARVARLIK KOMPETENSIYALARINI  
SHAKLLANTIRISHDA HARBIY MADANIYAT OMILI**

**ФАКТОР ВОЕННОЙ КУЛЬТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКИХ  
КОМПЕТЕНЦИЙ У МОЛОДЕЖИ**

**THE FACTOR OF MILITARY CULTURE IN THE FORMATION OF MILITARY PATRIOTIC  
COMPETENCES IN YOUTH**

**Каххаров Siyavush Xudayarovich** 

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya**

*Maqolada Vatan himoyasi, uning milliy xavfsizligi, hududiy yaxlitligi va suverenitetini ta'minlashda harbiy-vatanparvarlik sifatlarini rivojlantirish, yoshlar harbiy madaniyati va uning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Yoshlarda harbiy madaniyat kompetensiyalarini shakllantirish, ularni ma'nan va axloqan yetuk inson qilib tarbiyalashda harbiy madaniyat mexanizmlarining o'rni va roli tadqiq etilib, harbiy madaniyatni ijtimoiy-pedagogik masalalari ochib berilgan.*

**Аннотация**

*В статье описано развитие военно-патриотических качеств при защите Родины, ее национальной безопасности, территориальной целостности и суверенитета, молодежной военной культуры и ее специфические особенности. Исследованы место и роль механизмов военной культуры в формировании военно-культурных компетенций у молодежи, их воспитании как морально и нравственно зрелых людей, раскрыты социально-педагогические проблемы военной культуры.*

**Abstract**

*The article describes the development of military-patriotic qualities in the defense of the Motherland, its national security, territorial integrity and sovereignty, youth military culture and its specific features. The place and role of mechanisms of military culture in the formation of military culture competences in young people and their upbringing as morally and morally mature people have been researched, and socio-pedagogical issues of military culture have been revealed.*

**Kalit so'zlar:** Madaniyat, yoshlar, harbiy soha, Vatan himoyachisi, vatanparvarlik, harbiy madaniyat, harbiy burch, inson kapitali.

**Ключевые слова:** Культура, молодежь, военная сфера, Защитник Отечества, патриотизм, военная культура, военный долг, человеческий капитал.

**Key words:** Culture, youth, military sphere, Defender of the Fatherland, patriotism, military culture, military duty, human capital.

**KIRISH**

Yuqori professional, harbiy va vatanparvarlik burchiga sadoqatli, fidoyi va mard harbiy xizmatchilarni tarbiyalash O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontseptsiyasining qabul qilingani, armiya va xalq birligini ta'minlash borasida mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikdagi ishlarning kuchaytirilgani milliy armiyamiz saflarini mustahkam iroda, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlar bilan to'ldirib borish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatchilarning hayotiy va professional ko'nikmalarini ilm-ma'rifat asosida qalbi va ongiga singdirish, mamlakatimiz hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda ularning bilimlarini oshirib borish, yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalarida to'sqinlik qilayotgan tizimli muammolar hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Shu sababli harbiy vatanparvarlik va harbiy madaniyatni yuksaltirish va unga doir

## ILMIY AXBOROT

bo'lgan tushunchalarning tahlili va unga doir qarashlarni tadqiq yetish muhim pedagogik masala bo'lib qolmoqda. Mazkur tushunchalarda umumiylik bo'lsa ham, ular birday emas, o'zaro qaysi bir jihatlari, xususiyatlari bilan farqlanadi. Jamiyat, davr o'zgarishi bilan uning madaniyat tipi va ma'naviyatida o'zgarish, yangilanish bo'ladi. Ammo madaniy taraqqiyot uzilib qolmaydi, ilgari madaniyat, sivilizatsiya yo'q bo'lib ketmaydi, balki madaniy meros sifatida saqlanib qoladi. Har bir davr va avlod o'ziga xos madaniy meros yaratadi. Madaniy merosga qarab davr va avlodlar haqida hukm chiqariladi. Yoshlarni milliy Vatandarlik ruhida tarbiyalash, harbiy xizmatchilarning ongu tafakkuriga Vatan himoyasi sharafligi va muqaddas burch ekanligini, milliy armiyamiz bilan faxrlanish, davlat xavfsizligini himoya qilish uchun mas'uliyat tuyg'usini chuqur singdirishga xizmat qiladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek – "Yoshlarimizni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ona yurtga mehri va sadoqatini oshirishga yanada ko'roq ahamiyat berishimiz kerak"[1.], zero milliy qadriyatlarga, ma'naviyat va mafkuraga bo'lgan tahdidlar, yot g'oyalarni singdirishga bo'layotgan urinishlar kuchayib borayotgan sharoitda yoshlarning mafkuraviy immuniteti kuchaytirilib, ularning ta'lim-tarbiya va bilim olishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangi taraqqiyot bosqichida "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini shakllanishi, professional tizimga o'tishi tarixi, harbiy vatanparvarlik tarbiya nazariyasi, harbiy xizmatchilarning psixologik xususiyatlari bilan bog'liq sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan"[2.45].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mudofaa vazirligi tomonidan tashkil etilgan qator anjumanlar mazkur muammolarga qaratilganligi bilan e'tiborga loyiqdir[3.]. R.Samarov, N.Eshnaye, A.Redjaboyevlarning ilmiy tadqiqot ishlari harbiy masalalar bilan bog'liq bo'lsa-da, ularda Qurolli Kuchlarda xotin-qizlarning o'rni va harbiy kasbiy tarbiyasi, gender madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-harbiy ahamiyati, shuningdek, O'zbekistonda oila, davlat va jamiyat qurilishida ayollarning roli, yoshlarni milliy harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalarini tadqiq etganlar. Shuningdek, K.X.Usmonovning "O'zbek xalqi ma'naviy-axloqiy merosida harbiy vatanparvarlik g'oyalarining talqini"[4.], A.T.Zamonovning "Buxoro xonligining qo'shin tuzilishi va harbiy boshqaruvi"[5.] kabilar jamiyatda vatanparvarlik tarbiyasi, harbiy vatanparvarlik va harbiy madaniyatining turli sohalariga oid tadqiqotlar bo'lib, bugungi kun voqeligi harbiy madaniyatning pedagogik asoslarini tadqiq etishda asos vazifasini bajaradi.

Umuman olganda vatanparvarlik ongli va ixtiyoriy ravishda qabul qilingan pozitsiyasi bo'lib, vatanparvarlik tarbiyasi fuqarolar o'rtasida ijtimoiy ahamiyatga molik yo'nalishlar, jamiyatga yot bo'lgan masalalarni bartaraf etish, mazkur tarbiya texnologiyasi mamlakatni buyuk davlat sifatida milliy tiklanishi uchun sharoit yaratishga qaratilgan jarayonni tashkil qiladi. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'lsa, uning harbiy xizmatga tayyorlikni rivojlantirishga qaratilgan ajralmas qismidir. Harbiy vatanparvarlik tushunchasining kontsertual mazmunini ochib berish hisoblanadi. Harbiy vatanparvarlik har bir fuqaroning Vatanga xizmat qilishdagi o'rni va rolini chuqur anglashi, harbiy xizmat talablarini bajarish uchun yuqori shaxsiy mas'uliyat, zarur fazilatlar va ko'nikmalarni rivojlanganlik darajasi. Ayrim manbalarda "Maktab o'quvchilarini vatanparvarlik va harbiy xizmatga shaylik ruhida tarbiyalash degan ma'noni anglatadi" deyilsa, yana boshqalarida "harbiy burch va militaristik hamda millatchilik tuyg'ularining kuchayishi" yohud "harbiy tayyorgarlik talablarini samarali natijasi" yoki "ma'naviy fazilatlar sirasi" tarzida talqin etilgan. Demak harbiy vatanparvarlik asosida yoshlarda Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan oldidagi burchlilik, Vatan manfaatlarini himoya qilish qobiliyatlari, shaxsiy jonbozlik, fidoyilik, qahramonlik, daxldorlik hissiyoti kabi axloqiy kompetentsiyalarni qamrab oladi. Harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiya jarayoni bevosita Vatanni asrashda zarur bo'ladigan yuqori mudofaa hissi, harbiy-intelektual yetuklik, jismoniy chidamlilik, siyosiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik qurollanganlik kabi komponentlarni mujassamlashtiradi. Aynan, yoshlarni harbiyvatanparvarlik ruhida tarbiyalash – yoshlarda Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar qilib tarbiyalashga qaratilgan davlat va nodavlat tashkilotlari, oila, mahalla, ta'lim-tarbiya institutlarining maqsadli, tizimli va muvofiqashtirilgan faoliyatidir. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish, bu boradagi ta'lim-tarbiyaviy ishlarga mamlakatimiz fuqarolarini, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarini hamda

fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini yanada faol jalb yetish va yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg'ularini singdirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-son Qarori bilan tasdiqlangan-Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontsepsiyasi[6.]. Darhaqiqat, vatanparvarlik yoshlarda fuqarolik burchi, shaxsiy mas'uliyat hissi, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usini, faol hayotiy pozitsiya va qat'iy e'tiqodini, kasbiy mahoratini shakllantiradigan qudratli vositadir. Harbiy vatanparvarlik deganimizda – O'zbekiston Respublikasi yoshlarini o'z xalqi va vatanidan faxrlanish tuyg'usini hamda mustaqil suverenitetini himoya qilish qobiliyatini namoyon etish hisoblanadi.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Yangilanib borayotgan O'zbekiston taraqqiyotida harbiy madaniyatning madaniy tizimdagi o'rnini aniqlash ham muhim masala bo'lib, Vatan himoyasi, vatanparvarlik, harbiy vatanparvarlik an'alarining jamiyat siyosiy madaniyatida aks etishi va mudofaaviy ong va harbiy madaniyat mexanizmlarini har tomonlama o'rganish, ilmiy pedagogik nuqtayi-nazardan asoslab berishni taqozo qiladi. Chunki hozirgi tahlil sharoitida har bir davlatda amalga oshirilayotgan, harbiy islohotlar fuqarolarning, ayniqsa yoshlarning mudofaaviy ong va madaniyatini shakllantirish, uni yanada yuksaltirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sirasiga kiradi. Madaniyat-jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishlar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi[7.53.]. Uning tarkibida kishilardagi insoniylik fazilatlarini, uning ichki dunyosi, ma'naviylik darajasi mujassamlangan. Madaniyat – inson jamiyat a'zosi sifatida o'zlashtirgan bilimlarni, ishonch–e'tiqodlarni, san'atni, axloq va qonunlarni, urf–odatlarini, shuningdek, uning boshqa qobiliyati va ko'nikmalarini o'z ichiga olgan majmuadir[8.14.].

Harbiy madaniyatni jamiyatning umumiy madaniyatining shakllaridan biri, u nafaqat o'ziga xos xususiyatlarni belgilabgina qolmay, balki jamoat hayotining ko'plab xususiyatlarini ifoda etadi. Harbiy madaniyatni tarkibiy qismlari rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita aks ettiradigan barcha ma'lum ma'naviy va amaliy hodisalarni va inson tomonidan harbiy ishlar sohasida yaratilgan moddiy va ma'naviy asosni qamrab oladi. Bunda harbiy mafkura, harbiy ta'lim, harbiy fanlar, harbiy pedagogika, harbiy mahorat, harbiy strategiya, harbiy muhit, harbiy siyosat, harbiy iqtisodiyot, qurolli kurash, qurolli kuchlar, qurol va harbiy texnika, harbiy san'at, harbiy doktrinalar, harbiy tushunchalar, harbiy urf-odatlar, harbiy badiiy madaniyat kabi hodisalar tahlil qilinadi. Harbiy madaniyat, ongning tarixiy ravishda barqaror shakllangan, harbiy sohada insoniy xulq-atvor modellari sifatida namoyon bo'ladi. "Harbiy madaniyat turli subyektlardagi harbiy faoliyat motivatsiyasi va regulyatsiyasini ta'minlovchi me'yoriy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy va belgi elementlarini qamrab oladi. Harbiy madaniyat keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Keng ma'noda harbiy madaniyat, harbiy sohada inson tomonidan yaratilgan barcha narsalarni ko'zda tutadi. Tor ma'noda esa, harbiy sohada inson xulq-atvorining mustahkam tarixan individual, guruh, ommaviy tarzda tafakkur (ongdagi) ustanovkalar va modellarini nazarda tutadi"[9.78.]. Harbiy madaniyat tushunchasini armiya ichida mavjud armiya madaniyati sifatida ajratib ko'rsatadi va bu tushunchani moddiy madaniyat elementlari bilan boyitish zarurligini, busiz jamiyatdagi harbiy madaniyat ma'nosiz bo'lishini, o'ziga muvofiq harbiy formasiz va moddiy timsollarsiz harbiy madaniyat jamiyatda faoliyat yurita olmasligini asoslab beradi. Harbiy madaniyatni strategik madaniyatning ajralmas qismi, xususan, jamiyatdagi strategik qarorlarning turli shakllari deb tushuntirishgan[10.27.]. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasida R.Jumayev tomonidan tayyorlangan "Harbiy atamalar lug'ati"da, Sh.Z.Dolimov tomondan tayyorlangan "Harbiy atamalarning qisqacha lug'ati"[11.95.]da "harbiy madaniyat" tushunchasi kritilmasada tadqiqotchi G.Xoshimova tomonidan mazkur tushunchaning o'ziga hos ijtimoiy falsafiy talqinlari ishlab chiqilgan. Bir qator MDH tadqiqotchilari tomonidan harbiy madaniyat tushunchasi tadqiq etilgan. Xususan, V.N. Grebenkovning fikricha: "Harbiy madaniyat, ijtimoiy tafakkur va ma'naviy madaniyati elementlarini qamrab oladi. U harbiy sohada yagonalikni ta'minlovchi xulq-atvor pitsiplari, me'yorlar, ideallarni o'z ichiga oladi. Harbiy madaniyatning tarkibiy elementlari sifatida, jamiyatni harbiy himoya an'alarining avloddan avlodga o'tib kelishi, jamiyat himoyasi, mavjud me'yor va qadriyatlar, konepsiyalar va armiyaga bo'lgan xalq e'tiqodini ko'rsatib o'tadi[12.272.]. Rus tadqiqotchisi A.B. Grigorev esa, harbiy madaniyatni keng tushuncha, deb talqin qiladi. Bunga harbiylarning tili, tafakkuri, etikasi, falsafasi kiradi. Amaliy jihatdan jismoniy madaniyat bilan harbiy

## ILMIY AXBOROT

madaniyat bog'liqligini ta'kidlab o'tadi. Harbiy madaniyat harbiy kuchlarni tizimli faoliyatini, harbiy faoliyat qoidalarini va harbiy sohada o'rnak bo'ladigan holatlarni o'z ichiga oladi, degan xulosaga keladi[13.44.]. Harbiy madaniyatda rasmiylik, yuqori darajada uning tuzilishi va faoliyatini qamrab oladi, chunki harbiy faoliyatda Umumharbiy nizomlar mavjud bo'lib, ular – harbiy xizmat qonunidir.

Harbiy madaniyat umumiy madaniyat kabi moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'linadi. E'tirof etish kerakki, ma'lum bir tarixiy bosqichda, harbiy madaniyatning ma'naviy jihati qo'llab-quvvatlanadi, yoki aksincha, boshqa bosqichda moddiy jihatiga ko'proq e'tibor qaratiladi. Bu jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlarga bog'liqligi bilan izohlanadi. Harbiy madaniyatning barqaror va samarali ishlashi uchun moddiy va ma'naviy tarkibiy qismlarning maqbul rivojlanishi, kuchli muvofiqlashtirish va o'zaro aloqalarining mavjudligi katta ahamiyatga ega. Shuningdek, harbiy madaniyat butun madaniy sohaga, jumladan fan, san'at, dinga ta'sir qiladi va bu ta'sir harbiy harakatlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan madaniyatlarda bevosita aks etadi.

Harbiy madaniyatning roli, jamiyat hayotining barcha sohalari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan harbiy sohani, atrof-muhitdagi harbiy-madaniy hodisalarning mohiyati va mazmunini aks ettirgan bir qator muhim funktsiyalari ya'ni, tartibga solish, ijtimoiy tizimga integratsiyalash, bilishga oid epistemologik, evristik hamda umumlashtiruvchi mohiyatga ega jamlovchi, selektiv-integrativ funktsiyalari orqali namoyon bo'ladi.

**XULOSA**

Harbiy madaniyat umumiy madaniyatning bir qismi sifatida jamiyat a'zolarining harbiy sohadagi ijtimoiy munosabatlarini tartibga solib, yosh avlodni harbiy ijtimoiylashtirish va tarbiyalash ishlarini amalga oshiradi. Shuningdek, harbiy-nazariy tushunchalar va harbiy doktrinalar, harbiy san'at asarlari, askarlarni o'qitish va o'qitish texnologiyalari ko'rinishida tajriba to'planadi. Tartibga solish funktsiyasining o'ziga xos xususiyati, boshqa har qanday faoliyat turlariga qaraganda harbiy ishlarda ko'proq namoyon bo'ladi. Harbiy madaniyat, umuman madaniyat kabi, insonning xulq-atvorini ham tartibga soladi, uni muayyan hayot tarziga yo'naltiradi, fikrlash doirasini kengaytiradi, urushdan oldingi yoki harbiy vaziyatda o'zini qanday tutishni ko'rsatib beradi. Harbiy bilimlar, harbiy tajriba bilan tanishish, odamlarning urushni ijtimoiy hodisa sifatida baholash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Harbiy madaniyatning moslashtirish funktsiyasi tabiiy va ijtimoiy sharoitlarga va insonning tabiatiga moslashishni, epistemologik funktsiya evristik maqsadlarni belgilash va ularni eng samarali vositalar, usullarni topishni ta'minlaydi. Vaholanki, harbiy madaniyat, o'ziga xos, shuningdek, umuman madaniyat bilan bir xil xususiyatlarga ega ekanligiga qaramay moddiy va ma'naviy mehnatning mahsuli bo'lib, odamlarning qurolli to'qnashuvlarga munosabatini tartibga soluvchi, ijtimoiy me'yorlar tizimida shaxs, jamiyat va davlatning xavfsiz hayoti va rivojlanishi tamoyillariga asoslangan milliy hayotni tashkil etish usuli hisoblanadi. Harbiy madaniyat kontseptsiyasi, jamiyat madaniyatining harbiy jihatlari va harbiy faoliyatning madaniy tomonlarini tushunish, jamiyat a'zolarini harbiylashtirish va tarbiyalash masalalarini hal qiladi va yurtimizda harbiy ishlarni takomillashtirish uchun nazariy va amaliy ko'mak beradi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasidagi nutqidan. 2022.
2. Ватан ҳимояси-муқаддас бурч /Тузувчилар: Иноятов И.Ю. ва бошқалар. – Тошкент. Ўзбекистон, 2001.
3. Ҳарбий хизматчилар онгида миллий истиқлол ғояларини шакллантиришнинг долзарб муаммолари. Респ илмий-амалий анжуман материал. – Тошкент. ЎР МВ. 2002 ва бошқ.; Самаров Р.С. Қуролли Кучлар тизимининг феминизациялашуви: ривожланишнинг ўзига хослиги ва ижтимоий механизми. Ф.ф.д., дисс. - Тошкент. ЎзМУ, 2005; Эшнаев Н.Ж. Ўз Рда профессионал ҳарбий кадрларни тайёрлашнинг ижтимоий-фалсафий асослари. Ф.ф.н.дисс. - Тошкент. 2008; Реджабоев А.К. Ёшларни миллий истиқлол ғояси асосида ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш. П.ф.н.дисс. - Тошкент. 2004.
4. Усмонов К.Х. Ўзбек халқи маънавий-ахлоқий меросида ҳарбий ватанпарварлик ғояларининг талқини: Фалс. фан. ном. ...дис. авторефер. – Тошкент. ЎзМУ, – 2017.
5. Замонов А. Т. Бухоро хонлигининг қўшин тузилиши ва ҳарбий бошқаруви (xvi аср): Тарих фан. ном. дис. авторефер. – Тошкент. ЎзМУ, 2018.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018-yilning 23-fevral kunidagi 140-sonli Qarori bilan tasdiqlangan —Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi. <https://lex.uz/docs/3571158>
7. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. –Тошкент: ЎзМЭ, 2006.
8. Абдурахмонов М, Раҳмонов Н. Маданиятшунослик. –Тошкент: ЎзМУ, 2014.
9. Бажуков В.И. Эвристические возможности антропологического подхода к исследованию военной культуры: Дисс. д. филос. н. – Москва: СПб, 2009.

10. Bruno Colson. La culture stratégique française // Stratégique. Paris. 1992. № 53.
11. Долимов Ш.З. Ҳарбий атамаларнинг қисқача луғати. – Тошкент: ЎМВ, 2007.
12. Гребеньков В.Н. Военная культура российского общества: философско-культурологическая концепция: Дисс. к. филос. н. – Ставрополь: 2011.
13. Григорьев А. Военная культура: где точка опоры? // Вестник границы России. - № 1. 2000.